PEDAGOGIK KADRLAR SALOHIYATINING ZAMONAVIY TA’LIM TALABLARIGA MOSLIGI

Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna

Oriental Universiteti Axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko‘rsatish bo‘limi mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik kadrlar salohiyatining zamonaviy ta’lim talablariga mosligi masalalari yoritilgan. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablar – yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan pedagoglarning kasbiy mahorati, metodik saviyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari hamda uzluksiz o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishning samarali yo‘llari, zamonaviy ta’lim standartlari bilan uyg‘unlikda rivojlantirish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik kadrlar, salohiyat, zamonaviy ta’lim talablari, globallashuv, yuqori malakali kadrlar, innovatsion fikrlash, ijodkorlik, raqobatbardoshlik, kasbiy mahorat, metodik saviya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), uzluksiz o‘z ustida ishlash, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ta’lim standartlari

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы соответствия потенциала педагогических кадров современным требованиям образования. В условиях глобализации основными задачами системы образования являются подготовка высококвалифицированных, инновационно мыслящих, творческих и конкурентоспособных специалистов. В этой связи профессиональное мастерство педагогов, их методический уровень, умение использовать современные информационно-коммуникационные технологии, а также стремление к непрерывному саморазвитию рассматриваются как ключевые факторы. В исследовании обоснована необходимость повышения потенциала педагогических кадров и его развития в гармонии с современными образовательными стандартами.

Ключевые слова: Педагогические кадры, потенциал, современные требования образования, глобализация, высококвалифицированные кадры, инновационное мышление, творчество, конкурентоспособность, профессиональное мастерство, методический уровень, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), непрерывное саморазвитие, повышение потенциала педагогических кадров, образовательные стандарты

ISSN 3030-3907

Annotation. This article addresses the issue of compliance of teachers' professional potential with the requirements of modern education. In the context of globalization, the education system faces the key task of preparing highly qualified, innovative, creative, and competitive specialists. From this perspective, teachers' professional skills, methodological competence, ability to use modern information and communication technologies, as well as their commitment to continuous self-development are considered as crucial factors. The study substantiates the necessity of enhancing teachers' professional potential and developing it in line with contemporary educational standards.

Keywords: Pedagogical staff / Teachers, potential, modern educational requirements, globalization, highly qualified specialists, innovative thinking, creativity, competitiveness, professional skills, methodological competence, information and communication technologies (ICT), continuous self-development, enhancing teachers' potential, educational standards

Kirish

Mamlakatimizning rivojlanishi, uning taraqqiyoti, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamon talabiga mos bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislar, ularning malakasi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham yurtimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini yangicha shakllantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Hozirda chinakam bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun kurasha olishi mumkin. Kelajak avlodni yangicha, erkin va mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim hamda kasb-hunarlarni puxta egallagan, haqiqatni dadil ayta oladigan, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon eta oladigan va Vatan ravnaqi uchun mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yetuk yoshlar sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Yangi O‘zbekistonni yaratish uchun iqtisodiy, ta'lim, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar kabi sohalarda yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur ishlarni muvaffaqiyati o‘laroq O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19 mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullandi hamda 2020-yilning 23-sentabr kunidan kuchga kirdi. Mazkur Qonun 11 bob 75 moddadan iborat.

“Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonunga asosan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

ISSN 3030-3907

- ta’lim olishga doir keng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xususiyatlari;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limda tayyorlashnning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvning uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Ushbu qonunning V bobi “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” deb nomlanib, 44-moddasida Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga alohida urg‘u berilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Tegishli ma’lumot (Qonunga ko‘ra), kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxs va diplomli mutaxassis o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bunda oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

Istiqlol yo‘lidagi ilk qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, unung milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqqarish maqsadida ta’lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to‘g‘risidagi Qonunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o‘qituvchi-tarbiyachilarning mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharafli va mas’uliyatli vazifa turganligi ta’kidlanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e’lon qilingan hamda ta’lim

ISSN 3030-3907

sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilab berilgan. O‘qituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. Shu jihatdan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilgan. Jumladan, Dasturning 4.2. bandida pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta’limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko‘zlovchi tizimini vujudga keltirish ta’kidlanadi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasbiy sifatlarini takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlash ta’minlanadi. Ushbu talablar zamirida ham o‘qituvchining pedagogik mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish naqadar muhim va davr talabi ekanligi ta’kidlanmoqda. Shunday ekan, “Pedagogik mahorat” fanining vazifalarini “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari belgilab beradi.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o‘qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug‘ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: “O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchidan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida demokratik yangilanishlar amalga oshirilayotgan bir davrda asosiy masalalar sifatida iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyotni rag‘batlantirish hamda boshqariladigan bozor sharoitida shaxs hamda jamoa manfaatlarini samarali uyg‘unlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nazariy va amaliy nuqtayi nazardan ishlab chiqarish egalari bo‘lgan mehnatkashlarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularning ehtiyoj va talablari bilan hisoblashish taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sanaladi. Ayniqsa, ular ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy rivojlanishni jadallashtiruvchi qudratli harakatlantiruvchi kuch sifatida e’tirof etiladi. Bundan boshqaruvni isloh qilishning strategik g‘oyasi mehnatkash insonning obro‘sini oshirishdan iborat, chunki iqtisodiyotni sog‘lomlashtirishning asosi vijdonan va mas’uliyat bilan ishlovchi shaxsdir. Shu bois ishchining mehnatdan manfaatdorligini keskin oshirish, uning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish orqali uni jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlar tizimining muhim bo‘g‘iniga aylantirish lozim. Innovatsion faoliyat davrida esa yangiliklar, ya’ni, innovatsiyalar ta’lim jarayoniga tobora faol kirib kelmoqda. Shu sababli mazkur omillarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1) muammoli tahlil asosida aniqlash;
2) mo‘ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash;

ISSN 3030-3907

3) o‘zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish;
4) o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat. O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi.

Yangilik pedagogik yangilik me’yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo‘llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko‘ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar. Yangilik pedagogik yangilik me’yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo‘llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko‘ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar. O‘qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagogik olimlar fikrlariga tayangan holda quyidagilarni asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Hozirgi kundagi yuqori raqobatchilik sharoitida va ta’lim berishga qo‘yilgan vazifalarning qat’iyligi tufayli zamonaviy o‘qituvchi-tadqiqotchi o‘zining ilmiy-ijodiy, innovatsion salohiyatini to‘liq ochib berishga to‘sqinlik qiladigan muammolarni aniqlash va ularning ijobiy yechimini topish muhim xisoblanadi. Buning uchun esa har bir ta’lim muassasa ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish talab etiladi. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv tizimi mahsulot ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi orqali aniq iste’mol qiymatini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu yondashuv samaradorlik va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur prinsiplar, ayniqsa, ta’lim tizimida

ISSN 3030-3907

yuqori malakali, zamonaviy metodikalarga ega bo‘lgan, ilmiy daraja va unvon sohibi, doimiy o‘z ustida ishlaydigan pedagogik kadrlar tayyorlash va ulardan samarali foydalanishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sifati, eng avvalo, o‘qituvchilar malakasiga bog‘liq. Ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, IT vositalar va interaktiv metodlardan foydalanish qobiliyati doimiy takomillashib borishi zarur. Malaka oshirish, seminar-treninglar, ilmiy faoliyatga jalb etish asosiy vositalardan biridir. Bunday jarayon o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirib, ularning ta’lim jarayonida ilg‘or yondashuvlarni qo‘llashiga imkon yaratadi. Natijada, ta’lim sifati oshib, talabalar chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ilmiy izlanishlar, innovatsion ishlanmalar va talabalarni tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish oliy ta’lim sifatini oshiradi. Talabalar uchun grant dasturlari, startap loyihalar va ilmiy anjumanlar ularni tashabbuskor va tadbirkor qilib tarbiyalaydi. Talabalar va o‘qituvchilarning ilmiy ishlarda faol ishtiroki ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Mazkur innovatsion loyihalar asosidagi tadqiqotlar esa amaliy bilimlarni mustahkamlab, ta’lim va ilm-fanni samarali integratsiyalashuviga zamin yaratadi. Masalan, Latviya universitetlarida “Innovation Grants for Students” dasturi ishga tushirilgan bo‘lib, unda 6 500 dan ortiq talaba jalb etilgan va amaliy prototiplar ishlab chiqilgan. Mazkur innovatsion loyihalar asosidagi tadqiqotlar esa amaliy bilimlarni mustahkamlab, ta’lim va ilm-fanni samarali integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Ta’lim jarayonini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom va boshqalar)dan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshiradi. Onlayn kutubxonalar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi vositalar interaktiv va keng qamrovli ta’limni ta’minlaydi.

Sifatli ta’lim uchun samarali boshqaruv tizimi muhim. Raqamli boshqaruv, akkreditatsiya jarayonlari, ta’lim sifatini monitoring qilish tizimlari orqali nazorat va tahlil olib borilishi kerak. Bu esa muammolarni erta aniqlab, yechim topish imkonini beradi.

Talabalarning individual yondashuvga ega bo‘lishi, qiziqishlariga mos yo‘nalish tanlashi ularning darsga bo‘lgan munosabatini ijobiy o‘zgartiradi. Iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlovchi stipendiyalar, tanlovlar, loyihalar ularning o‘z ustida ishlashiga turtki beradi.

Chet el oliygohlari bilan qo‘shma dasturlar, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi, xalqaro akkreditatsiyalardan o‘tish oliy ta’lim sifatining muhim kafolatlaridan biridir. Bu orqali xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlar egallash imkoniyati oshadi.

ISSN 3030-3907

Ta’lim jarayonini boshqarish sifatini oshirishda zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari muhim o‘rin tutadi. Learning Management System (LMS), Customer Relationship Management (CRM) hamda Education Management Information System (EMIS) kabi tizimlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqani raqamlashtirish, hujjat aylanishini avtomatlashtirish hamda sifat monitoringini tizimli yo‘lga qo‘yish mumkin. Shuningdek, ta’lim muassasalarining akkreditatsiya jarayonlari va sifat nazoratini zamonaviy standartlar asosida tashkil qilish - uzluksiz takomillashuvni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir.

Hamkorlik va xalqaro integratsiya yo‘nalishida esa xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma dasturlarni joriy qilish, akademik mobillik dasturlari (student exchange), xalqaro tanlov va loyihalarda ishtirok etish orqali o‘quv jarayonining xalqaro darajaga chiqishiga xizmat qilmoqda.

Ulardan samarali foydalanish yo‘llari :

1. **Modul tizimiga o‘tish va raqamli o‘quv resurslaridan foydalanish**. Elektron darsliklar, videodarslar, masofaviy ta’lim platformalarini keng joriy etish. “Flipped classroom” va “blended learning” kabi uslublardan foydalanish.
2. **O‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini ta’minlash**. Malaka oshirish kurslari, onlayn treninglar, vebinarlar tashkil etish. Innovatsion pedagogik metodlarni o‘rganishga rag‘batlantirish.
3. **Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish**. Talabalar uchun grantlar, startap tanlovlari va ilmiy anjumanlar. Fan va amaliyot integratsiyasiga asoslangan kurs ishlar va bitiruv malakaviy ishlar.
4. **Axborot texnologiyalarini keng joriy etish**. Raqamli baholash tizimi, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt yordamida ta’limni moslashtirish. LMS (Moodle, Canvas) orqali interaktiv ta’lim tashkil etish.
5. **Xalqaro standartlar asosida akkreditatsiyadan o‘tish** Ta’lim sifatini mustaqil baholovchi tashkilotlar bilan ishlash. ISO, ENQA kabi xalqaro sifat standartlariga moslashish.
6. **Talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish**. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi ta’lim, munozarali darslar. Soft skills (muloqot, yetakchilik, teamwork) bo‘yicha maxsus modullar.

Xullas, Pedagogik kadrlar salohiyatining zamonaviy ta’lim talablariga mosligi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omildir. O‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan, innovatsion yondashuvlarga tayyor va uzluksiz o‘rganishga intiluvchi bo‘lishi bugungi kunda raqobatbardosh, bilimli avlodni tarbiyalashning zaruriy shartidir.

ISSN 3030-3907

Bugungi kunda respublikamizdagi ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirgan holda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rganish hamda tahlil qilish asosida xalqaro standart talablariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Bugungi ta’lim tizimi eski mazmundagi o‘quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimiga o‘tmoqda. Shunga mos ravishda ta’lim berishga yondashuvlar ham o‘zgarib, internet va axborot texnologiyalari sharofati bilan o‘qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, o‘qituvchi tashkilotchiga aylanmoqdalar.

Ayrim o‘qituvchilar uchun bunday o‘zgarish oson bo‘lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish qobiliyati zarur bo‘lganligi sababli, o‘quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini, ya’ni kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.09.2020-y., №03/20/637/1306.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 1997. - Xalq so‘zi gazetasi, 29-avgust, 1997-yil, №177.
3. Diesterveg A. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy unsurlari. – Toshkent: “Pedagogika” nashriyoti, 2021. – B. 5–6.
4. Сатторов Ш.Ж. Педагогик инновациялар: назарий асослари ва қўллаш соҳалари // Ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2020. – №4. – Б. 45–47.
5. Абдуллаева Н. А. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning malaka oshirish tizimi. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020. – B. 45–47.
6. Innovation Grants for Students – Investment in Creativity and Latvia’s Future. - Latvian Ministry of Education and Science, 5 fevral 2025
7. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. - Toshkent: UzMarkaz, 2024. - B. 1–4

ISSN 3030-3907